



GENDERGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHNING XALQARO MAYDONDAGI O'RNI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

THE ROLE OF GENDER-RESPONSIVE BUDGETING IN THE INTERNATIONAL ARENA AND ITS EFFECTIVENESS INDICATORS

¹Sharapova Mashxura
Azadovna, ²Ismoilova
Mohiraxon Iqbol qizi

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, PhD. **ORCID:** 0009-0004-0345-5171, **E-mail:** sharapovamash@mail.ru, ²Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2-bosqich talabasi. **ORCID:** 0009-0009-1411-7190, **G-mail:** mohiraismoilova562@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada gendernga yo'naltirilgan budjetlashtirishning xalqaro maydondagi o'rni va samaradorlik ko'rsatkichlari va uning davlat moliya siyosatidagi o'rni tahlil qilinadi. Gender tahlil va gender auditi kabi metodlar asosida mavjud gender tafovutlar, budjet jarayonlarida uchraydigan muammolar hamda xalqaro tajribaning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Eng. - The article examines the role of gender-responsive budgeting in the international context and its effectiveness indicators, as well as its place within state financial policy. Drawing on methods such as gender analysis and gender auditing, the study addresses existing gender disparities, challenges encountered in budgetary processes, and the significance of international experience.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ gender budjetlashtirish, gender tengligi, fiskal siyosat, davlat budjeti, budjet samaradorligi, gender auditi, ijtimoiy adolat, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro tajriba, inson kapitali, ijtimoiy investitsiyalar.

❖ gender budgeting, gender equality, fiscal policy, state budget, budget efficiency, gender audit, social justice, economic development, international experience, human capital, social investments.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda gender tengligiga erishish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, ayollar va erkaklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston davlat siyosatida yangi ibora — Genderga Yo'naltirilgan Budjetlashtirish (GYB) joriy etildi. Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish

— gender tengligi maqsadlarini budjet jarayoniga, shu jumladan budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, nazorat qilish, hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, baholash va audit jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilish bo'yicha strategik yondashuv hisoblanadi [1].

Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish davlat moliyasini boshqarish tizimida adolat, samaradorlik va hisobdorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvdir.

Uning dolzarbligi, birinchi navbatda, mavjud resurslarning to'g'ri, maqsadli va ehtiyojga mos taqsimlanishini ta'minlash bilan belgilanadi. Gender farqlarini inobatga olgan holda rejalashtirilgan budjet sarf-xarajatlarning haqiqiy foydalanuvchilari aniqlanadi, resurslar real ehtiyojlardan chetga chiqmaydi. Natijada, samarasiz xarajatlar qisqaradi va budjetning ijtimoiy qaytimi oshadi. Shu sababli u budjet siyosatida samaradorlikni ta'minlaydigan eng ta'sirchan mexanizmlardan biri sanaladi.

Bundan tashqari, genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish mamlakatda gender tengsizligini kamaytirish, ya'ni milliy rivojlanishning asosiy mezonlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik va mulkchilik sohalaridagi gender tafovutlari davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. GYB ushbu farqlarni aniqlab, ularga yo'naltirilgan aniq moliyaviy choralarni belgilash orqali tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada mamlakatning xalqaro reytinglardagi, jumladan GDI va GII ko'rsatkichlaridagi pozitsiyasi yaxshilanadi. Shuningdek, GYB O'zbekistonning xalqaro majburiyatlari bilan ham bevosita uyg'unlikda faoliyat yuritadi. Mamlakat BMTning CEDAW konvensiyasi ishtirokchisi sifatida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlarga ega [2].

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-son Qarori bilan "Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ni budjet jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Buyuk Britaniyalik iqtisodchi Diane Elson genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishning nazariy asosini yaratgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, davlat budjeti

"gender neytral" emas – u ayollar va erkaklarga turlicha ta'sir qiladi. Elson gender tengsizligi nafaqat adolatsizlik, balki iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi omil ekanini ko'rsatadi. U keltirgan dalillarga ko'ra, ayollarning ta'lim va resurslardan teng foydalanish imkoniyati bo'lmaganda mamlakat o'z YaIMining 25 foizgacha miqdorini yo'qotadi [4].

Guy Hewitt va Tanni Mukhopadhyay GYBni nafaqat iqtisodiy vosita, balki yaxshi boshqaruv (good governance) elementi sifatida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, GYB davlatning shaffofligini oshiradi, jamoatchilik, ayniqsa ayollar, ishtirokini kuchaytiradi va resurslar taqsimotini aniqroq nishonga olishga yordam beradi. Ushbu olimlar fikricha, GYB odatda faqat ayollarga yo'naltirilgandek qabul qilinadi. Aslida esa ushbu amaliyot asosan milliy darajadagi hukumat budjetlarining jamiyat va iqtisodiyotda gender munosabatlari qanday ahamiyatga ega ekanini tan olgan holda, erkaklar va ayollar guruhlariga turlicha ta'sirini baholashni maqsad qiladi [4]. Garchi bu tizim budjet xarajatlarning ayollar va qizlarga ta'sirini aniqlashga qaratilgandek ko'rinsa-da, GYB ayollar uchun alohida budjetlar tizimi emas. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ Genderga yo'naltirilgan maxsus ajratmalar tahlili;
- ❖ Barcha sektor va xizmatlardagi umumiy xarajatlarning genderlar kesimidagi alohida tahlili;
- ❖ Davlat xizmatlaridagi tenglik siyosati tahlili.

Jahon banki bu masalaga o'z munosabatini bildirib, hozirda davlat moliyasining genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish orqali taraqqiyot ko'rsatkichlariga ta'siri qayta ko'rib chiqilayotganini aytgan. Asosiy xulosalar mamlakatlar Moliya vazirliklari quyidagi ishlarni amalga oshirish orqali hal qiluvchi rol o'ynashi mumkunligini ko'rsatmoqda:

- Gender tafovutlarini kamaytirishga qaratilgan dasturlarga mablag' ajratish. Mablag' manbasisiz tashabbuslar tuproqsiz urug'dek gap — tarqalishi mumkin ammo gullab-yashnamaydi.

-Milliy budjet orqali gender tengligini rag'batlantirish. Moliya vazirliklari budjet orqali gender tengligini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Rejalashtirishda siyosiy kelishuvni mustahkamlash va gender maqsadlarini

aniqlash, nazoratda mablag'larning to'g'ri ishlatilishini ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish muhimdir.

- Budjetlashtirish gender tengsizliklarini kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga to'sqinlik qilmasligini ta'minlash [5].

Quyidagi 1-rasmda GYB tizimiga o'tishni joriy qilishda foydalanish mumkin bo'lgan Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar rejasi berilgan:



1-rasm. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar rejasi [5]

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada genderni yo'naltirilgan budjetlashtirishning xalqaro maydondagi o'rni va samaradorligini o'rganishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullari qo'llangan. Xalqaro tajriba, GYB amaliyoti va samaradorlik indikatorlari tahlil qilinib, xulosalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


O'zbekiston iqtisodiy siyosatida so'nggi yillarda modernizatsiya, fiskal shaffoflik va ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlar kengayib borayotgan bo'lsa-da, davlat budjeti hali ham

ko'p jihatdan "gender neytral" yondashuvni qo'llaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, budjetni neytral deb qabul qilish amalda uni genderni befarq qilish deganidir. Chunki har bir budjet qarori — soliqlar, subsidiyalar, ijtimoiy dasturlar, ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlar — erkak va ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatadi, biroq an'anaviy budjetlashtirishda bu farqlar hisobga olinmaydi.

Genderni sezgir bo'lmagan budjet jamiyatning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanishga imkon bermaydi. Ayniqsa, ayollar iqtisodiy faolligi past bo'lgan

davlatlarda budget siyosati gender nomutanosibliklarini chuqurlashtirishi mumkin. O'zbekistonda o'tqazilayotgan so'nggi islohotlarga qaramay, mehnat bozori, ijtimoiy himoya, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda gender tafovutlari sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.


Yuqorida keltirilgan xulosalarni amaliy ma'lumotlar bilan asoslash maqsadida, O'zbekistondagi mavjud budget siyosatining gender kesimidagi natijalarini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilaylik.



2-rasm. Ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar ulushi (foizda) [6]

Mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy drayverlardan biri bo'lgan tadbirkorlik sohasidagi statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalar ulushi atigi 26 foizni, ayollar rahbarlik qilayotgan (menejerlik qilayotgan) kompaniyalar ulushi esa atiga 12 foizni tashkil etadi. Mazkur raqamlar nafaqat rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada

past, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi qo'shni davlat — Qozog'iston bilan solishtirganda ham ancha quyi. Bu holat mamlakatda ayollarning tadbirkorlik va boshqaruv faoliyatidagi ishtiroki yetarli darajada ro'yobga chiqmayotganini, shuningdek, mazkur yo'nalishda institutsional va ijtimoiy to'siqlar mavjudligini anglatadi.



3-rasm. 2017-2023-yillarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasi [6]

2017-2023-yillar davomida ayollar va erkaklar o'rtasidagi ishsizlik darajasi

dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy sharoitlarning murakkablashuvi fonida


O'zbekistonda ayollar ishsizligi darajasi erkaklarga nisbatan barqaror ravishda yuqori bo'lib qolmoqda. Ayrim yillarda ishsizlik ko'rsatkichlarining keskin oshishi mehnat bozoridagi beqarorlik va umumiy iqtisodiy ahvolning yomonlashuvi bilan izohlanadi. Keyingi davrda nisbiy barqarorlashuv kuzatilgan bo'lsa-da, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonda ayollar ishsizligi darajasi UMICS va jahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqoriroq ekani iqtisodiy o'sish va bandlikni rag'batlantirishga qaratilgan budjet choralarining gender jihatdan differensial ta'sirini yetarlicha hisobga olinmayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda genderni yo'naltirilgan budjetlashtirish O'zbekiston uchun ham iqtisodiy, ham ijtimoiy zarurat bo'lib bormoqda. Jahon Banki va UN Women hisobotlariga ko'ra, ayollar iqtisodiy faolligining oshishi mamlakat YaIMining 10-12 foizgacha o'sishiga xizmat qiladi [7]. Aholining yarmi bo'lgan ayollar mehnat bozorida va tadbirkorlikda to'liq ishtirok

etmasa, davlatning mavjud iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish ehtimolligi kamayadi.

Demografik yuklamaning ortishi O'zbekistonda ta'lim, sog'liqni saqlash, bolalar parvarishi va bandlik dasturlari kabi ijtimoiy xizmatlar xarajatlarini muqarrar ravishda ko'paytiradi. Bu xizmatlarga sarflanayotgan mablag'lar jamiyatning barcha qatlamlariga teng va samarali yetib borishi uchun budjet qarorlarida gender omilini inobatga olish zarur. Shu ma'noda, demografik yuklamaning ortishi sharoitida GYBning ahamiyati yanada ortadi.

Kambag'allikning feminizatsiyasi, ya'ni kambag'al aholi orasida ayollar ulushi ortib borayotgani [7] — genderni yo'naltirilgan budjetlashtirishning eng asosiy sabablaridan biridir. Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan sharoitda an'anaviy budjet siyosati tengsizlikni chuqurlashtirishi mumkin. Shuning uchun, budjet qarorlarida ayollar ehtiyojlari, bandlik imkoniyatlari va ularning ijtimoiy xavfsizligi alohida e'tiborga olinishi zarur.



4-rasm. Uy xo'jaligi doirasida to'lanmaydigan maishiy mehnatga ajratilgan vaqt ulushi [6]

4-rasm ma'lumotlari uy xo'jaligi doirasidagi to'lanmaydigan maishiy mehnat yukining barcha ko'rib chiqilgan mamlakatlarda ayollar zimmasida yuqori ekanini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekistonda ayollar mazkur mehnat turiga 22 foiz vaqt

ajratayotgan bo'lsa, erkaklarda bu ko'rsatkich 9 foizni tashkil etadi. Ushbu tafovut Qozog'iston, Turkiya va Rossiya kabi davlatlarda ham saqlanib qolgan bo'lib, ayollarning uy-parvarish va parvarish mehnatidagi ustuvor ishtiroki mintaqaviy

xususiyatga ega ekanini anglatadi. Nisbatan rivojlangan mamlakatlar misolida, jumladan Finlandiyada, erkaklarning ushbu mehnatdagi ulushi yuqoriroq bo'lib, gender tafovutlarining kichikroq ekanini kuzatish mumkin. Mazkur nomutanosiblik ayollarning mehnat bozorida to'liq ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi, ularning daromad olish, tadbirkorlik va rahbarlik lavozimlariga ko'tarilish ehtimolini pasaytiradi hamda gender tengsizligining muhim institutsional omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu nomutanosiblik ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etish imkoniyatini, daromad va rahbarlik lavozimlariga chiqishini cheklab, gender tengsizligining muhim institutsional omili sifatida namoyon bo'ladi.

GYBni faqat ijtimoiy tenglikka qaratilgan qo'shimcha xarajatlar to'plami sifatida ko'rish noto'g'ri. So'nggi yillarda xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon Banki, IHTT, XVJ – GYBning fiskal siyosatga integratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishini ta'kidlamoqda. GYBning markaziy g'oyasi shundan iboratki, davlatning ayollar, bolalar va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun ajratayotgan mablag'lar to'g'ri yo'naltirilgan taqdirda makroiqtisodiy jihatdan xarajat emas, balki investitsion aktiv vazifasini bajaradi.

Budjet mablag'lari sektorlar bo'yicha taqsimlanadi, biroq "kim bu resurslardan eng ko'p foydalanadi?" degan savolga javob beruvchi gender tahlili mavjud emas. Natijada ayollar uchun eng zarur bo'lgan xizmatlar yetarli moliyalashtirilmaydi. Bu esa budjetning samaradorligini pasaytiradi, resurslar taqsimotida nomuvofiqlik yuzaga keltiradi. Shuning uchun, aynan hozirgi iqtisodiy sharoitda GYBni joriy etish O'zbekiston uchun tanlov emas – zaruriyatdir.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi, balki davlat moliyasining samaradorligini oshiruvchi muhim fiskal mexanizm hisoblanadi. Uy xo'jaligi doirasidagi to'lanmaydigan mehnat yukining asosan ayollar zimmasida bo'lishi ularning iqtisodiy faolligini cheklab, mehnat bozori va tadbirkorlikdagi ishtirokini pasaytiradi. Bu holat O'zbekistonda ayollar ishsizligi darajasining nisbatan yuqori saqlanib qolishi hamda ayollar rahbarlik qilayotgan korxonalar ulushining pastligi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlar va parvarish infratuzilmasiga yo'naltirilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash gender tafovutlarini kamaytirish bilan birga, umumiy iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekistonda budjet jarayonlariga gender tahlilini tizimli ravishda joriy etish, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya sohalarida ajratilayotgan mablag'larning ayollar va erkaklarga ta'sirini baholash zarur. Davlat tomonidan bolalar va qariyalar parvarishi xizmatlarini kengaytirish, mehnat va oilaviy majburiyatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi dasturlarni moliyalashtirish ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, budjet siyosatida genderga yo'naltirilgan yondashuvni mustahkamlash orqali davlat resurslaridan foydalanish samaradorligi ortadi, ijtimoiy adolat ta'minlanadi va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.imv.uz/gender-oriented-funding/category/genderga-yonaltirilgan-budjetlashtirish>
2. "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya. <https://lex.uz/docs/-2685528>

3. "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-297-IV-son qarori, 28.05.2021-yil.

4. Debbie Budlender, Diane Elson, Guy Hewitt and Tanni Mukhopadhyay. *Gender Budgets Make Cents: Understanding gender responsive budgets*. 2002. Information and Public Affairs Divisions, London, UK.

5. Richard Sutherland & Ganzul Erdenebal. *From Rhetoric to Action: Empowering Women Through Gender-Responsive Budgeting*. March, 2024. World Bank publish.

6. World Bank. (2024). *Gender data: Uzbekistan*. World Bank Gender Data Portal.

7. European Institute for Gender Equality. (2023). *Gender budgeting*. European Union. <https://eige.europa.eu/gender-mainstreaming/tools-methods/gender-budgeting>